

Andijon viloyat statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-avgust oylarida Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **13616,3 mlrd. so'mni**, o'sish **127,1 %** ni
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **29,4 %** ni
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **76,7 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **21,2 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda korxonalari tomonidan 13616,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 127,1 % ni tashkil etdi.

- Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 97,4 foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 1,9 foiz, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 foizni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 65,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13267,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 97,4 % ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 254,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 10449,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 129,4 %, jami sanoatdagi ulushi esa 76,7 % ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

1-diagramma



Yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

2-diagramma




Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 59,3 % ulushini), Andijon (18,0 %), Honobod shaharlari (4,3 %), Andijon (2,5 %), Shahrixon (2,5 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2018 yilning yanvar-avgust oylarida hududlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmi va o`rta sur`atlari**

3-diagramma




Shu bilan birga eng kam ulush Bo`z (0,4 %), Ulug`nor (0,5 %), Buloqbo'shi (0,7 %), va Paxtaobod (0,7 %) tumanlariga to`g`ri keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Andijon (2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 121,3 % ga), Honobod (111,6 % ga) shaharlarida, Asaka (138,7 % ga), Jalaquduq (115,3 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

4-diagramma



**Andijon viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

A.Иброхимов
(0371) 230-82-57